

“FARXOD VA SHIRIN” DOSTONIDA TUN VA TONG KONSEPTI

*Termiz davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasida o‘qituvchisi Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiyning “Farxod va Shirin” dostoniga to‘xtalib, unda mutafakkir qo‘llagan ayrim baytlarga to‘xtalgan. Baytlar nazmiy va nasriy shaklda ko‘rsatilgan bo‘lib, o‘quvchiga qulaylik tug‘dirish maqsadi ko‘zga tutilgan. Baytlarda ishtirok etgan tun hamda tong so‘zlarining qaysi ma’noda kelayotganligi, bu kun qismlarini yana qaysi badiiy vositalar orqali izohlayotganligi, tun va tong konseptlarini ular bilan ma’nodosh bo‘lgan boshqa so‘zlarni tavsiflash, baytlarda qo‘llanilayotgan tongning uyg‘onish, ibodat, umid, harakat, ramzi ekanligiga ishora tomonlarini o‘rganish va ularni tahlil qilish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tun, tong, badiiy tasvirlar, ibodat, subh, sahar, shom, qorong‘ulik, uyg‘onish, bayt.

Abstract: This article focuses on Navoi’s epic poem “Farkhod and Shirin” and some of the couplets used by the thinker in it. The couplets are presented in verse and prose, with the aim of creating convenience for the reader. The meaning of the words “night” and “morning” in the couplets is explained, through which artistic means these parts of the day are explained, the description of the concepts of night and morning with other words that are synonymous with them, the study of the aspects of the reference to the fact that the morning used in the couplets is a symbol of awakening, prayer, hope, action, and their analysis are highlighted.

Keywords: Night, morning, artistic images, prayer, dawn, dusk, darkness, awakening, couplet.

Аннотация: Данная статья посвящена эпосу Навои «Фарход и Ширин» и некоторым стихам, использованным мыслителем в нем. Стихи представлены в стихотворной и прозаической форме, с целью удобства читателя. Каково значение слов ночь и заря в строфах, какие еще художественные средства используются для интерпретации этих частей дня, описываются понятия ночи и зари другими синонимичными им словами, значение использованной зари в строфах освещаются изучение и анализ аспектов символа надежды, молитвы, упования, действия, их анализ.

Ключевые слова: Ночь, рассвет, художественные образы, молитва, заря, утро, вечер, темнота, пробуждение, стих.

Tun va tong dialekti tarixiy bosqichlar aro o‘zining adabiyotda tasvir vositasidagi maqomini yuqotgan emas. Buni mumtoz adabiyot vakilining durdona asari “Xamsa” dostonining ikkinchi ishqiy dostoni sanalmish “Farxod va Shirin” dostonida ishlatigan tun va tong so‘zlari va ularning ma’no konseptlarini ochib berish orqali isbotlamoqchimiz. Navoiyning “Farxod va Shirin” dostoni jahon klassik adabiyotining muhabbat bobida yaratilgan shoh asarlardan biri sanaladi. Doston ikki pok qalbni insonlarning haroratli sof muhabbatini kuylashga bag‘ishlangan bo‘lib, unda odamilik, do‘stlik, tinchlik, insonparvarlik, jasurlik, obodonchilikka intilish kabi motivlar ana shu qudratli sevgi haqida bayon etilgan. Avvalo, asar boshlanganidan Chin diyorining go‘zal va bahovo tabiatini tasvirlashda, undan so‘ng esa hukmdorining cheriklarining hisobi son-sanoqsiz ekanligini tunning doimiy yo‘ldolari sanalmish yulduzlar hisobi bilan berilgan. Bundan tashqari xoqonning birdan bir dardi farzandsizligi edi. Uning farzandli bo‘lishi ham quyidagicha tariflanadi:

Shabistonida tug‘di bir yangi oy,

Yangi oy yo‘qki, mehri olamoroy.

“Uning tungi oromgohida yangi bir oy tug‘ildi. Oy emas, balki olamni bezaguvchi bir quyosh tug‘ildi” [Alisher Navoiy “Farxod va Shirin”, nasriy bayoni, 26-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi]. Keltirilgan misolda tun qorong‘ulik, iztirob kabi ramizy ma’noda ishlatilgan. Chin xoqonining farzandsizligini qorong‘u kechaga va qorong‘u kechani yorituvchi oyni Farxodga istiora tarzida sifatlagan.

Kecha dudini surgach tong nasimi,

Chiqordi subh ganji lavhi simi.

“Tong shamoli tunning qora tutunini surib tashlagach, tong xazinasidan quyidagi kumush taxtani olib chiqib osdi: kecha g‘oridan Quyosh ajdar og‘zidan o‘tlik alanga chiqqanday chiqdi” [Alisher Navoiy “Farxod va Shirin”, nasriy bayoni, 26-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi]. Asar bilan tanishar ekansiz, Farxodning har bir mushkil sinovga yo‘lga otlanishi tong otishi bilan boshlanishiga guvoh bo‘lasiz, bu bilan mutafakkir, tong otishi, quyoshning tunning zulmat qaroqchilari ustidan qorong‘alaba qilishiga ishora qiladi. Keltirilgan parchada ham tong shabadasi qorong‘u kecha dudi ustidan zafar qozongani, bayt boshlanmasidanoq Farxodning ajdar ustidan g‘alaba qozonishiga ishoradir.

Chu serti dahr tun mushkiga kofur,

Sochildi Ahraman anfosidin nur.

Tutib holig‘a tun ifriti motam,

Sulaymoni falak ko‘rguzdi xotam

“Kechaning qora mushkiga dunyo oq kofur sepgach, Ahraman devning nafasidan jahonga nur sochildi. Tun debi kechaning holiga motam tutib, falak Sulaymoni o‘zining porloq uzugini olamga ko‘rsatdi”. [Alisher Navoiy “Farxod va Shirin”, nasriy bayoni, 26-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi]. Navoiyning ushbu dostonida tun ko‘pincha ishq, umidsizlik, dard, alam, sinov ramzi sifatida qo‘llangan. Tun debi kecha deb ta‘riflangan ushbu baytda, tong otishi (ya‘ni Falak Sulaymoni deb Kurrai zaminning yaratuvchisi nazarda tutilgan, quyosh esa uning porloq uzugidir), quyosh chiqishi bilan o‘z raqibini mag‘lub qilganiga ishora va isbotdir. Ko‘rinib turibdiki, tong har qanday dushman ustidan g‘alaba ramzi sifatida qo‘llanilgan.

Chu zulmat raiyati bo‘ldi nigunsor,

Quyosh Iskandari ko‘rguzdi ruxsor.

“Qorong‘ulik qo‘shinining bayrog‘i oyoq osti bo‘lib, Quyosh Iskandari yuz ko‘rsatdi” [Alisher Navoiy “Farxod va Shirin”, nasriy bayoni, 26-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi]. Dostonda vaqt qismi sanlmish tun faqat shu so‘z bilan ifodalanib qolmagan, berilgan baytda tunning badiiy tasvir orqali ifodalanishiga misol keltiramiz, zulmat har doim tunning ajralmas qismi sanlagani uchun bu so‘zning o‘zi orqali tunni tushunsak bo‘ladi. Doston qahramoni Farxod uchinchi tilsimni yengish oldidan tongda uyg‘onib, har doimgiday yer o‘pib (bu yerda sajda ma‘nosida kelgan), otasidan duo olib yo‘lga chiqadi. Bu yerda Farxod Iskandar jomini qo‘lga kiritishi ham Navoiy so‘z qo‘llashi orqali bayon etilgan. Ushbu baytda *qorong‘ulik* so‘zi orqali tun ifodalangan va tun qancha qorong‘i bo‘lmasin, uning nihoyasida, albatta, yorug‘ ton kelishiga ham ishoradir.

Sahar Suqroti chun tog‘ avji tutdi,

Jamoli nuri olamni yorutti

“Sahar Suqroti tog‘ning tepasidan joy olar ekan, uning yuzidan tarqalgan nurlar butun olamni yoritdi”. [Alisher Navoiy “Farxod va Shirin”, nasriy bayoni, 26-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi] Dostonda tun va tong konseptini badiiy tasviriy vositalar orqali ifodalangan. Keltirilgan baytning “sahar” so‘ziga e‘tibor berar ekansiz, “sahar” so‘zining Navoiy davridagi ko‘rinishi ekanligiga guvoh bo‘lasiz. Berilgan bayt “Farxod va Shirin” dostonining Farxod Suqrot bilan uchrashuvi tasvirlangan qismi ekanligi ma‘lum bo‘ladi, chunki kunni yorituvchi Koinot yulduzi sanalmish Quyoshni tasvirlashda mutafakkir Suqrot ismi orqali ifodalamoqda. Quyosh kunni yorituvchi muhim manba ekan, Suqrot ham Farxod bilmoqchi bo‘lgan sir-u sinoatlarga yechimdir degan ma‘no yashiringanday go‘yo.

Saxar sarchashmasi chun bo‘ldi ravshan

Falakning marg‘zarin qildi gulshan.

Tongning bosh bulog‘i borlay boshlab, ko‘kning maysazorini gulshanga aylantirdi. [Alisher Navoiy “Farxod va Shirin”, nasriy bayoni, 26-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi]. Ushbu baytda siz, tong ma’nosini sahar so‘zi orqali ifodalanganligini ko‘rasiz. Yozuvchi o‘z fikrini bayon etishda (kunni ifodalashda: subh, shah, sahar konseptlaridan unumli foydalangan) faqat tong so‘zi bilan cheklanib qolmay, tongning bir necha qismlariga murojaat qilgan va bu har bir murojaatdagi so‘z o‘z ma’nosiga egadir.

***Chu tebratti nasimin subh bog‘i,
Isidin hushiga keldi dimog‘i.***

Tong shamoli o‘z shamollarini harakatga keltirgandan keyingina Farxodning dimog‘iga bu shamol urulib, u o‘ziga keldi. [Alisher Navoiy “Farxod va Shirin”, nasriy bayoni, 26-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi]. Yuqorida keltirilgan misolda “sahar” so‘zi ishlatilgan bo‘lsa, endigi baytda “subh” so‘zi orqali uyg‘onish vaqtini anglatmoqchi bo‘lgan. Navoiy din homiysi bo‘lgan shaxs sanaladi, buni Farxodning har bir mashaqat safariga chiqishi uchun aynan tong vaqtini tanlaganligi, but oat-ibodat vaqti ekanligi, maqsadlarga erishish uchun Olloh huzuriga bosh qo‘yish, yer o‘pish vaqti ekanligiga, bu esa barcha mushkullarning eng birinchi yechimi ekanligiga ishora qilgan.

***Chu tun kishtida kun yorushdi qoqum,
Kim etti bahr sinobu talotum.***

“Tun o‘z qora po‘stiniga kunni oldi”. Bu yerda kun tong ma’nosida kelgan. Tun esa o‘z ma’nosini bermog‘da. [Alisher Navoiy “Farxod va Shirin”, nasriy bayoni, 26-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi].

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, mutafakkir ushbu dostoni orqali, botiniy va zohiriy muhabbat haqida o‘quvchiga doston qilish bilan birga, o‘sha davr adabiyoti, tili, o‘zining so‘z qo‘llash borasidagi badiiy mahorati haqida mukammal ma’lumot berib o‘tgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy “Farxod va Shirin”, nasriy bayoni. www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Tohirjon Jo‘rayev. Navoiy “Xamsa”si. Obraz, badiyat va mohiyat. -Toshkent. “Zilol buloq” nashriyoti. 2023
3. Узбек тилининг тарихий лексикаси. Тошкент: Фан, 1972
4. Т. Жалолов. Хамса талкинлари. Тошкент: 1968.